

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

DEMOKRATIK JAMIYAT QURUSHDA PROBATSIIYA XIZMATINING AHAMIYATI VA ZARURLIGI

Chutbaev Muhammadullo Raxmatullaevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti Ixtisoslashtirilgan filiali
Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti, dotsent
Email: dillo_07@mail.ru

Tojiboev Bexzod Zafar o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ixtisoslashtirilgan filiali talabasi

ANNOTATSIIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasida probatsiya xizmatining vujudga kelishi, probatsiya xizmatining ahamiyati va zarurligi tahlil qilingan. Xalqaro tajriba sifatida Italiya tajribasi o'rganilgan. Maqolaning maqsadi probatsiya xizmatining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish, mahkumlarni ijtimoiy hayotga moslashtirishni jarayonini tahlil qilgan holda, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish jarayonini demokratik tamoyillarga moslashtirishga xissa qo'shish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: probatsiya, mahkum, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo, jazoni ijro etish, ijtimoiy moslashtirish

Bugungi kunda demokratik jamiyat qurish, baxtli va farovon, inson qadr-qimmati ta'minlangan, qonun ustunligi so'zsiz tan olinadigan va eng muhimi insonlarning huquqlarining kafolati ta'minlangan demokratik jamiyat qurush asosiy vazifa sifatida insoniyat oldida turgan asosiy vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilinayotgan barcha ustavlarning bosh g'oyasi aynan shunday jamiyat qurishdan iboratdir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida keltirilganidek har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir. Aynan shunday jamiyatni qurishda probatsiya xizmatining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro sub'ektning to'la huquqli azosi sifatida demokratik jamiyat qurush yo'lida katta ishlarni amalga oshirmoqda, bunda demokratik jamiyatni ta'minlashda muhim bo'lgan bir necha mehanizmlardan foydalangan holatda yuqorida ta'kidlangan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

jamiyat qurush vazifasini ilgari surmoqda. Bunday mehanizmlardan biri bu probatsiya xizmatidir. Malumki odil sudlovni amalga oshirish va fuqorolarning huquqiy ongini oshirishda ularning qonunga ishonch ruhi qay darajada ekanligi muhim sanaladi, bunda xafliy qilmish sodir etgan shaxsni ishtimoiy xayotga moslashtirish muhim sanaladi, aynan shunday muhim vazifani amalga oshirishda probatsiya xizmatining o'zni beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkun. Probatsiya so'zi lotincha «*probatio*» – “sinov” so'zidan olingan bo'lib, xalqaro amaliyotda ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning ijro etilishini ta'minlash va nazoratini olib boorish ma'nosini anglatadi. Ya'ni jazoga mahkum qilingan shaxsni to'g'ri hayot yo'liga qaytarish, unga yana bir imkon berish, ayblanuvchini to'g'ri hayotga qaytarish uchun unga yana bir imkon berish, uni qilgan xatosidan tog'ri xulasa chiqarish uchun probatsiya muhim sanaladi. O'zbekiston Respublikasida probatsiya xizmati mavjud bo'lib bunda qonunchilikga asosan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etilishini nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan probatsiya xizmati mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tarkibidagi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etilishini nazorat qilish boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari negizida sud hukmi yoki ajrimi bilan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarni jazolarini ijro etilishini ta'minlaydigan boshqarma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “Jinoyat qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4006-sonli Qarori bilan 2019-yil 1-yanvardan joriy qilingan. Bundan ko'rinib turibdiki O'zbekiston Respublikasida probatsiya xizmati ozodlikdan mahrum qilinmagan shaxslarni nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan xolatda tashkil etilgan bo'lib bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-oktiyabrda so'zlagan nutqi asosida ya'ni bilib-bilmasdan jinoyat yo'liga kirib qolgan va jazoni o'tayotgan fuqorolarning ijtimoiy moslashuvini, sog'lom hayotga qaytishini ta'minlashda ham ichki ishlar organlarining o'zni va roli ortib bormoqda. Bu yo'nalishda ilgarigi jazoni ijro etish inspeksiyasi o'rniga probatsiya xizmatini tashkil etdik. Ushbu xizmat mahkumlarni zarur kasb-hunarlariga o'qitish va tayyorlash, ishga joylashtirish, ularni xususiy tadbirkorlikka jalb etish, eng asosiysi, ish beruvchilar tomonidan ularning huquq va manfaatlari ta'minlanishida yaqindan yordam ko'rsatmoqda deb ta'kidlagan edi. Mazkur xizmat nechog'li zarurligi yurtboshimiz to'g'ri baxolay oldi. Shu dastur asosida mazkur xizmatni izchilik bilan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

joriy qilish to'g'risida farmon imzolandi, ya'ni ushbu xizmatni izchillik bilan rivojlantirish maqsadida, 2021-yil 3-fevral kunidagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini – Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturining 30-bandida xalqaro standartlar va insonparvarlik tamoyilini keng joriy etgan holda jazoni ijro etish va probatsiya xizmatini yanada takomillashtirish bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Mazkur o'zgarishlar mamlakatimizda olib borilayotgan isloxlarning nechog'liq to'g'ri va zarurligidan dalolat beradi, ammo shuni ham unutmaslik kerakki probatsiya xizmati faqat shu doirada to'xtab qolmasligi va uni yanada keng joriy qilish demokratik jamiyat asosi ekanligini bilishimiz zarur. Umumiy xulosaga keladigan bo'lsak probatsiya xizmati bu demokratik jamiyatining asosi bo'lib mahkumga yana bir imkon berish va uni to'g'ri hayot yo'liga qaytarishdan iborat bo'lib, sinov mudati asosida tegishli organlar nazorati ostida mahkumni to'g'ri hayotga qaytarishdan iborat. Xalqaro tajribalarda probatsiya xizmatining demokratik jamiyatdagi o'rni nechog'lik ekanligi Italiya yorqin misoldir, Italiyada probatsiya sudgacha probatsiya deb nomlanib unda Italiya Oliy sudlari tomonidan sud jarayoni 8-oygacha to'xtatib turulib mahkumni to'g'ri hayot yo'liga qaytarish uchun unga yana bir imkon beriladi, albatta bunda mahkumga ma'lum bir kategoriyalar ham asos qilib olingan albatta voyaga yetmaganlar, nogironlar, ayollar: 58 va undan yuqori yosh bo'lishsa, uch yoshga to'lmagan yosh bolalari bo'lishi va homiladorligi, erkaklar: 63 yoshdan katta bo'lishi yolg'iz uch yoshga to'lmagan yosh bolalarni tarbiyalayotganligi va boshqalarni sanab o'tish mukun. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki probatsiya xizmatini joriy qilish va jahon tajribasidan xususan Italiya tajribasidan probatsiya xizmatini liberallashtirishda keng foydalanish mamlakatimizda demokratik jamiyat qurush va uni yanada rivojlantirish, fuqorolik jamiyatini mustahkamlashda asos bo'lib ximzat qiladi. Negaki mahkumga yana bir imkon berish, uni qilgan qilmishidan to'g'ri xulosa chiqartirish orqali uni jamiyatga ishonchini qaytarish va tog'ri hayotga moslashtirish uchun zarur va kerak ekanligini ko'rishimiz mukun. Unutmaslik kerakki xalqimizning farovon yashashi va kelajakka umid bilan boqishi uchun demokratik jamiyat zarurdir, bu jamiyatni qurush va mustahkamlashda esa probatsiya xizmatining o'rni beqiyosdir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.
3. A.X.Saidov — Jahon mamlakatlarining huquqiy tizimlari // qomusiy lug'at. Toshkent. - 2006.
4. Mahkumlar huquqlari: xalqaro va milliy standartlar / F.Bakaeva va boshq. — Toshkent: Tafakkur, 2011
- 5 "Jinoyat qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-sonli Qarori
- 6 O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroya Kodeksi
- 7 www.lex.uz
- 8 www.norma.uz



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE
SERIES